**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi raisi**

**_____________ Sh. Sharaxmetov**
**“ 30 ” 12 2022-yil.**

**O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining**
**2023-yil I-yarim yilligiga mo‘ljallangan**
**ISH-REJASI**

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | **YANVAR** | | |
| **1.** | Qo‘mitaning markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalar tomonidan 2022-yilda amalga oshirilgan ishlarni jamlash, tahlil qilish, xisobotlarni tatorrlash va Vazirlar Mahkamasiga yuborish | 2023-yil 10-yanvar | **K.Mamatov**, boshqarma xodimlari |
| **2.** | Davlat organlari va tashkilotlarning ma’lumotlar bazasini Qo‘mita axborot tizimiga integratsiya qilinishini tashkillashtirish. | 2023-yil 25-yanvar | **I.Sultonov,** “ATJEM” DUK xodimlari, **U.Davlatov**, Departament xodimlari |
| **3.** | Qo‘mita Markaziy apparatining 2023-yil uchun shtatlar jadvalini ishlab chiqish va tasdiqlash uchun kiritish. | 2023-yil yanvar | **L.Allayev,** boshqarma xodimlari |
| **4.** | Yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasini Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yalpi majlisiga ikkinchi o‘qishga kiritish uchun tayyorlashda ishtirok etish | 2023-yil yanvar | **Sh. Shadmankulov** |
| **5.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi 269-son farmonidan kelib chiqib Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi tog’risidagi nizomni ishlab chiqish | 2023-yil yanvar | **Sh. Shadmankulov** |
| | **FEVRAL** | | |
| **6.** | Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalarning tuzilmalari tayyorlash | 2023-yil 10-fevral | **Rais o’rinbosarlari,** B.Maxmudov, L.Allaev |
| **7.** | Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari, hududiy boshqarmalarning Nizomlarini, vazifalar taqsimotlarini ishlab chiqish | 2023-yil 10-fevral | Qo’mita tarkibiy tuzilmalari va hududiy boshqarmalar rahbarlari |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| **8.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son Farmonidan kelib chiqib normativ-huquqiy hujjatlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish va ularga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish | 2023-yil fevral | **Sh. Shadmankulov** boshqarma xodimlari |
| **9.** | O‘zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi hujjatlarini raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqligini o‘rganish. | 2023-yil fevral | **U.Fayazov,** boshqarma xodimlari |
| **10.** | Qurilish va yo‘l qurilish texnikalari ishlab chiqarish bozorida tahlil o‘tkazish. | 2022 yil fevral-mart | **X. Ortikov,** A.Yusupov D. Djalilova |
| **11.** | Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan taqdim etiladigan monopoliyaga qarshi komplaens to‘g‘risidagi hisobot asosida monopoliyaga qarshi komplaens ko‘rsatkichlarining bajarilishi haqidagi natijalarni baholash. | 2023-yil fevral | **T.Abdurashidov** |
| **12.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi 101-son Farmoni hamda boshqa hujjatlar bilan eksklyuziv huquqlari bekor qilingan va barcha tadbirkorlik sub’ektlari shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarda raqobat rivojlanganligini tahlil qilish | 2023-yil fevral | **X.Ortiqov, V.Mustafina,** hududiy organlar |
| | **MART** | | |
| **13.** | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida ayrim turdagi tovar vositalarini olib chiqish va olib kirish uchun alohida xo‘jalik yurituvchi subektlarga nisbatan joriy qilingan imtiyozlarni to‘liq xatlovdan o‘tkazish va takliflar tayyorlash. | 2023-yil 5-mart | **U.Fayazov,** boshqarma xodimlari |
| **14.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi PQ-430-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Davlat soliq qo‘mitasi bilan birga axborot tizimlarini tovar-xom ashyo birjalarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilib, tovarlarning haqiqiy bozor narxlarini kuzatish, kelishib qilingan harakatlar va til biriktirish, manipulyatsiyalar va boshqa qonunchilik buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash mexanizmlarini joriy qilish.<br>Tovar-xom ashyo birjalarining axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishini ta’minlash. | 2023-yil 20-mart | **B.Xodjayev,** “Axborot texnologiyalarini joriy etish markazi” DUK |
| **15.** | Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar davlat reestriga kiritilgan korxo nalar yoki shaxslar guruhi tomonidan ishlab chiqariladigan tovarlarni yetkazib berishda va xizmatlarni ko‘rsatish bo‘yicha 2023-yilning I-choragi davomida to‘g‘ridan-to‘g‘ri imzolangan shartnomalarning “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun talablariga muvofiqligi yuzasidan tanlanma ravishda o‘rganish o‘tkazish va aniqlangan holatlar to‘g‘risida hisobot tayorlash. | 2023-yil mart | **V. Mustafina** Hududiy boshqarmalar boshliqlari |
| **16.** | Navruz bayrami munosabati bilan hududlardagi markaziy bozorlarda tashkil etiladigan “Savdo yarmarkalari”da asosiy turdagi mahsulotlarning narxlarini monitoring qilish va Vazirlar Mahkamasiga | 2023-yil 15-23-mart | **U.Davlatov**, Departament xodimlari, |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | axborot kiritib borish. | | hududiy organlar rahbarlari |
| 17. | "O‘zyog‘moysanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan yog‘ maxsulotining birja savdolariga qo‘yiladigan boshlang‘ich narxlarni o‘rganish. | 2023-yil mart | **A.Yarov**<br>Sh.Rixsivoyev<br>S.Maxmudov<br>barcha hududiy boshqarmalar |
| 18. | O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi hamda Ozarbayjon Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Monopoliyaga qarshi kurashishi siyosati va iste’molchi bozorlar nazorati bo‘yicha davlat xizmati o‘rtasida raqobat qonunchiligini qo‘llash sohasida o‘zaro anglashuv hamda hamkorlik to‘g‘risida memorandum loyihasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan o‘rnatilgan tartibda kelishish va imzolash. | 2023-yil mart | **Sh.Soatov,**<br>boshqarma xodimlari |
| 19. | Aholining istemolchilik bilimi va xuquqiy savodxonligini oshirish maqsadida, “15 mart Xalqaro iste’molchilar huquqlarini himoya qilish kuni”ga bag‘ishlangan keng qamrovli ma’rifiy ishlarni tashkil qilish | 2023-yil 15 март | **A. Qurbonov**,<br>Barcha hududiy boshqarmalar |
| | **APREL** | | |
| 20. | Qo‘mitaning markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalar tomonidan o‘tgan davr (choraklik) mobaynida amalga oshirilgan ishlarini jamlash, tahlil qilish, xisobot tayyorlash. | 2023-yil 10-aprel | **K.Mamatov**,<br>boshqarma xodimlari,<br>hududiy organlar rahbarlari |
| 21. | Tashqi bozorlarda asosiy turdagi tovarlar bilan bog‘lik bozor konyunkturasini o‘rganish. Import va eksporta hajmlari va narxlar dinamikasini tahlil qilish, takliflar tayyorlash. | 2023-yil 15-aprel | **U.Davlatov**,<br>Departament xodimlari |
| 22. | Davlat ulushiga ega tijorat banki O‘zsanoatqurilishbank ATB tomonidan 2021 - 2022 yillar davomida amalga oshirilgan davlat xaridlarining samaradorligi va natijadorligini masofaviy tahlil qilish. | 2023-yil aprel | **M. Kamilov**<br>Departament xodimlari |
| 23. | O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi hamda Turkiya Raqobat organi o‘rtasida raqobat siyosati sohasidagi o‘zaro anglashuv hamda hamkorlik to‘g‘risida memorandum loyihasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan o‘rnatilgan tartibda kelishish va imzolash. | 2023-yil aprel | **Sh.Soatov,**<br>boshqarma xodimlari |
| 24. | Birja savdolari sohasida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish xavfini tahlil qilish to‘g‘risidagi nizom loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil aprel | **B.Xodjayev,**<br>**J.Ibragimov** |
| 25. | O‘zbekiston temiryo‘llari AJ yondosh bozorlarida tahlil o‘tkazish, jumladan:<br>*Yuk vagonlarini ishlab chiqarish;*<br>*Yuk vagonlarini ta’mirlash xizmatlari;* | 2022 yil mart-aprel | **X. Ortikov**<br>A.Yusupov<br>D. Djalilova |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | *Lokomotivlarni ta'mirlash xizmatlari;*<br>*Yo'lovchi vagonlarini qurish xizmatlari;*<br>*Yo'lovchi vagonlarini ta'mirlash xizmatlari;*<br>*Yo'lovchi vagonlarini yuvish va tozalash xizmatlari.* | | |
| **26.** | Hududiy kommunal xizmatlar, shu jumladan, ichimlik suvi, suv-oqova xizmati va isitish tizimi tariflarining asosli shakllantirilishi, amalga kiritilishi va qo'llanishi tartiblariga rioya etilishi yuzasidan o'rganish o'tkazish. | 2023-yil aprel-may | **D.Botirov,**<br>Barcha hududiy boshqarmalar |
| **27.** | «O'zbekiston tovar-xomashyo birjasi» AJ tomonidan ko'rsatiladigan birja xizmatlari (birja bitimlari, hisob-kliring va axborot operatsiiyalari) tariflarini o'rganish, bunda monopol yuqori va monopol past narxlarini qo'llash yuzasidan tahlil o'tkazish.<br>"Angren shakar" MChJ va "Xorazm shakar" AJlar tomonidan ishlab chiqarilgan shakar maxsuloti narxlarini o'rganish. | 2023-yil aprel | **A.Yarov**<br>Sh.Rixsivoyev<br>S.Maxmudov<br>Barcha hududiy boshqarmalar |
| | **MAY** | | |
| **28.** | Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron shaklda to'ldirishini yo'lga qo'yish. Bunda orginfo.uz platformasiga elektron dikloratsiyaning na'munaviy shaklini integratsiya qilish orqali xodim tomonidan o'zi va yaqinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (F.I.Sh) kiritilganda ushbu shaxs rahbarlik yoki tasischilik qilayotgan korxona, tashkilot bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda avtomatik tarzda elektron dikloratsiyaga kiritilishini yo'lga qo'yish buyicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil may | **"Axborot texnologiyalarini joriy etish markazi" DUK**<br><br>**D.Nasirova, boshqarma xodimlari** |
| **29.** | Savdo tarmoqlari faoliyatini tartibga solishni nazarda tutuvchi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil 10-may | **U.Davlatov,**<br>**U.Fayazov**,<br>Departament va boshqarma xodimlari |
| **30.** | Iqtisodiy konsentratsiyaga oldindan rozilik berilganligi uchun undiriladigan yig'im miqdorini hisoblash tartibi to'g'risida idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. | 2023-yil may | **V.Mustafina**<br>**Sh. Shadmankulov** |
| **31.** | "Agrosanoat majmuida xizmatlar ko'rsatish markazi" DUK tomonidan ko'rsatiladigan qishloq xo'jaligi ekinlarini sertifikatlash va sifatini nazorat qilish xizmatlar narx (tarif)larini o'rganish. | 2023-yil may | **A.Yarov**<br>Sh.Rixsivoyev<br>S.Maxmudov<br>barcha hududiy boshqarmalar |
| **32.** | "Reklama to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunda 8 turdagi tovar (ish, xizmat) reklamasida ilova qilinishi lozimligi belgilangan ogohlantirish ilovalari matnini mutasaddi vazirlik va idoralar, nodavlat tashkilotlar, jamoatchilik vakillaridan olingan xulosalar asosida tasdiqlash. | 2023-yil may | **E. Xaitmetov** |
| **33.** | Tovar, moliya va raqamli bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar davlat reestridagi korxonalrni baholash va tegishli sohada raqobat muhitini rivojlantirish yuzasidan | 2022 yil may-iyun | **X. Ortikov**<br>D. Djalilova<br>A.Yusupov |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | takliflar ishlab chiqish | | |
| 34. | Raqamli bozorlarda monopoliyaga qarshi tartibga solishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida hukumat qaror loyihasini tayyorlash | 2022 yil iyun | **X. Ortikov**<br>D. Djalilova<br>A.Yusupov |
| 35. | Insofsiz raqobat, kartel kelishulari, kelishib olingan harakatlar va isofsiz raqobat bo‘yicha aholining savodxonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy rolik, targ‘ibot materiallari tayyorlash va ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish. | 2023-yil may | **S.Atamurotov**<br>Hududiy boshqarmalar boshliqlari,<br>**O.Xasanov** |
| 36. | 51 turdagi yuqori likvidli hamda monopol tovarlarni ularning narxlarini oshishi, taklifnining qisqarishi xavflaridan kelib chiqib 3 ta guruhga “yuqori”, “o‘rta” va “past” xavf guruhlari bo‘yicha tasniflash tizimini joriy etish hamda “yuqori” tasnifga kirgan tovarlar bo‘yicha birja savdolarini kunlik monitoringini amalga oshirish. | 2023-yil may | **B.Xodjayev,**<br>J.Ibragimov |
| 37. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 26 oktyabrdagi PQ-411-son qaroridan kelib chiqib, Qo‘mita va uning hududiy organlarida iste’molchilardan dori narxi yuzasidan tizim orqali kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqishni tashkil qilish, shu jumladan huquqiy ta’minlash maqsadida alohida yo‘riqnoma ishlab chiqish. | 2023-yil may | **A. Qurbonov** |
| 38. | “Reklama to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunda 8 turdagi tovar (ish, xizmat) reklamasida ilova qilinishi lozimligi belgilangan ogohlantirish ilovalari matnini mutasaddi vazirlik va idoralar, nodavlat tashkilotlar, jamoatchilik vakillaridan olingan xulosalar asosida tasdiqlash. | 2023-yil may | **A. Qurbonov** |
| 39. | Faoliyatning iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta’minlash va iste’molchilar muammolari bilan ishlash bo‘yicha ichki tashkiliy tartib-taomillar (komplayens) tizimini yo‘lga qo‘yish. Bunda, komplayens tizimni tajriba (sinov) tariqasida tijorat banklari, sug‘urta, mikromoliya tashkilotlarida joriy qilish. | 2023-yil may | **A. Qurbonov** |
| | **IYUN** | | |
| 40. | “Oson business” onlayn ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish. Bunda, tabiiy monopoliya sub’ektlarining mavjud infrastrukturalari mavjudligi, infra tuzilmalarning quvvatlarini darajasi to‘g‘risida axborot tizimini berish, hududlarda raqobat muhitini holati, bozorlar strukturasi, hududlar salohiyati to‘g‘risida ma’lumotlarni ko‘zda tutish. | 2023-yil iyun | **D.Botirov,**<br>boshqarma xodimlari<br>Barcha hududiy boshqarmalar |
| 41. | Tabiiy monopoliya subyekt sifatida e’tirof etish bo‘yicha mezonlarini belgilash to‘g‘risidagi takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil iyun | **D.Botirov,**<br>boshqarma xodimlari<br>Barcha hududiy boshqarmalar |
| 42. | Temiryo‘llarda yuk tashish vagonlarini va sig‘imlarni ijaraga berish, yuklarni ortish va tushirish, | 2023-yil | **A.Yarov**<br>Sh.Rixsivoyev |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | vagonlarni yo‘nalishlarga o‘tkazish hamda tozalash xizmatlari bozori o‘rganish o‘tkazish.<br>“O‘ztemiryo‘lkonteyner" AJ tomonidan ko‘rsatiladigan vagon tarozilarini o‘rnatish, ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatish xizmatlar narx (tarif)larini o‘rganish | iyun | S.Maxmudov barcha hududiy boshqarmalar |
| **43.** | Tovar-xom ashyo birjasi savdosiga oid amaldagi qonunchilikni tahlil qilish va takomillashtirish, tovar derivativlarini joriy etish va rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish borasida texnik-iqtisodiy yordam jalb qilish, shu jumladan yetakchi xalqaro ekspertlar bilan ishlash. | 2023-yil iyun | **B.Xodjayev, J.Ibragimov** |
| **44.** | Tovar, moliya va raqamli bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar davlat reestrini xatlov (inventarizatsiya) dan o‘tkazish va reestrga tegishli o‘zgartirishlar kiritish. | 2023 yil yanvar-iyun | **X. Ortikov** boshqarma xodimlari |
| **45.** | Ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda Qo‘mita va boshqarma faoliyatida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida turkum materiallar, intervyu va boshqa vositalarda chiqishlar qilish. | 2023-yil iyun | **M. Kamilov**<br>B. Boboxonov<br>A.Matmusaev<br>M.Abduraxmonova |
| **46.** | Xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish asosida savdolar jarayonida o‘zaro kelishib olingan va boshqa raqobatga zid harakatlarni aniqlashga qaratilgan “xavfni tahlil etish” (risk analiz) elektron tizimini yaratish bo‘yicha taklif ishlab chiqish | 2023-yil iyun | **M. Kamilov**<br>B. Boboxonov<br>Departament xodimlari<br>**“Axborot texnologiyalarini joriy etish markazi” DUK** |
| **47.** | Davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar rasmiy veb-saytida raqobat cheklanishi, kelishib qilinadigan harakatlar va til biriktirish holatlari haqida axborot berish imkonini beradigan sahifa yaratish masalasini ko‘rib chiqish. | 2023-yil iyun | **T.Abdurashidov** |
| **48.** | Tovar yoki moliya bozorida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning davlat reyestriga kiritilgan monopolist korxonalarning xaridor va sotuvchilar bilan tuzgan shartnomalarini o‘rganish va uning yakuni bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish. | 2023-yil iyun | **S.Atamurotov**<br>Hududiy boshqarmalarning mas’ul xodimlari |
| **49.** | Chakana savdo tarmoqlari va ularga mahsulot etkazib beruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish hamda chakana savdo tarmoqlariga mahsulot etkazib beruvchilarni kirishidagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil iyun | **U.Davlatov,U.Fayozov**<br>Departament va boshqarma xodimlari |
| **50.** | Mahalliy ishlab chiqarilgan va import qilinayotgan maishiy elektr texnika vositalariga ta’mirlash va texnik xizmat ko‘rsatuvchi (servis syentr) korxonalarning tashkil etilganligini o‘rganish. | 2023-yil iyun | **A. Qurbonov,**<br>hududiy boshqarmalar boshliqlari |
| **51.** | Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha nodavlat jamoatchilik organlari tashkil qilish va reklama sohasida o‘zini-o‘zi tartibga solish tizimini joriy qilishni kengaytirish, davlat tomonidan | 2023-yil iyun | **A. Qurbonov** |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish | | |
| **DOIMIY** | | | |
| **52.** | Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi faoliyatini keng yoritish, amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni doimiy xabardor qilish va media sohasida targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish. | 2023-yil doimiy | **O.Xasanov** tarkibiy bo'linmalar, hududiy boshqarmalar |
| **53.** | Birja savdolariga majburiy qo'yilishi kerak bo'lgan yuqori likvidli va monopol mahsulotlarni birja savdolariga qo'yish jadvallarini birjaning rasmiy veb-saytiga belgilangan muddatlarda joylashtirilishi va mahsulotlarni birja savdolariga qo'yilishini ta'minlash hamda aniqlangan manipulyatsiya holatlari yuzasidan tegishli choralar ko'rib borish. | 2023-yil doimiy | **B.Xodjayev,** Boshqarma xodimlari Hududiy boshqarmalar |
| **54.** | Mehnat munosabatlariga oid hamda Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi faoliyati bilan bog'liq qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tashkil etish. | 2023-yil doimiy | **B. Maxmudov** |
| **55.** | Monopoliyalarni tartibga solish sohasida amalga oshirilgan ishlar shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning birlashishiga hamda aksiyalarni (ulushlarni) olishga oldindan rozilik berish to'g'risida berilgan qarorlar va mazkur harakatlarni oldindan rozilik olmasdan sodir etganlik uchun qo'zg'atilgan ishlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan qarorlar yuzasidan maqolalar tayyorlab Qo'mitaning rasmiy veb-saytida joylashtirib borish. | 2023-yil doimiy | **V.Mustafina** |
| **56.** | Toshkent shahrida joylashgan oliy o'quv muassasalarining talabalari, Davlat boshqaruvi hamda Bank-moliya Akademiyalari tinglovchilarining, Toshkent Davlat yuridik universiteti o'qituvchilarini Qo'mitada amaliyot hamda stajirovka o'tashlarini tashkil etish. | 2023-yil doimiy | **B.Maxmudov** Boshqarma xodimlari |
| **57.** | Asosiy turdagi tovarlar narxlarining o'zgarishi dinamikasini kuzatib borish maqsadida narxlar shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni, statistika va bojxona organlari ma'lumotlarini, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarini monitoring qilib borish. | 2023-yil doimiy | **U.Davlatov**, Departament xodimlari, hududiy organlar |
| **58.** | Qo'mita va hududiy organlarga amalga oshirilgan yuridik va jismoniy shahslar murojatlari hamda yuqori turuvchi tashkilotlar topshiriqlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash | 2023-yil doimiy | **K.Karabaev, F.Ikramova** |
| **59.** | Rais o'rinbosarlari faoliyati natijalarini baholash (KPI) va ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga yuborish | 2023-yil har chorakda | **K.Mamatov**, boshqarma xodimlari |
| **60.** | Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reyestriga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy monopoliya xizmatlari ko'rsatilishi yuzasidan o'rganish va tahlillar o'tkazish hamda reyestrga tegishli o'zgartirishlar kiritish. | 2023-yil har chorakda | **D.Botirov** Barcha hududiy boshqarmalar |
| **61.** | Ichki bozorda benzinga bo'lgan talab va taklifni o'rganish, sotilayotgan benzin narxlarini tahlil qilish hamda aholini benzin mahsulotlari bilan barqaror va arzon narxlarda ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish. | 2023-yil har chorakda | **U.Davlatov**, Departament xodimlari, hududiy organlar |
| **62.** | Paxta yog'i, go'sht, sut, tuxum va parranda go'shti mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar hamda import | 2023-yil | **U.Davlatov**, |

| № | Chora-tadbirlar nomi | Ijro muddati | Tadbirlarni amalga oshiruvchi ijrochilar |
|---|---|---|---|
| | qiluvchilar bilan narxlarni barqarorlashtirish bo‘yicha choralar ko’rish | doimiy | Departament xodimlari, hududiy organlar |
| **63.** | Elektron tijoratda iste’molchilar huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qator tadbirlar va o‘quv seminarlarini tashkil etish. | Doimiy | **A. Qurbonov,** boshqarma xodimlari |